

**CHET TILI VA TIBBIYOT: KASBIY MALAKANI OSHIRISHDA  
LINGVISTIK YONDASHUVLAR**

***Jumaniyozova Surayyo Azimboy qizi***

*Toshkent davlat tibbiyat universiteti “O’zbek va xorijiy tillar” kafedrasiga  
o’qituvchisi*

*E-mail: [jumanyozovasurayyo181@gmail.com](mailto:jumanyozovasurayyo181@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda zamonaviy tibbiyat sohasi mutaxassislarining kasbiy malakasini oshirishda chet tilining, ayniqsa ingliz tilining ahamiyati yoritilgan. Lingvistik yondashuvlar asosida chet tili o‘qitishning samarali metodlari, xalqaro ilmiy hamkorlik va akademik mobil’lik jarayonlari, shuningdek, lingvokulturologik kompetensiyaning kasbiy faoliyatdagi roli tahlil qilingan. Raqamlı texnologiyalar yordamida chet tilini o‘rganish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqilgan. Tezisda chet tilini mukammal bilish shifokorlarni raqobatbardosh va global talablarga mos mutaxassis sifatida shakllantirishdagi o‘rni ilmiy asosda izohlangan.

**Kalit so‘zlar:** Chet tili, tibbiyat, lingvistik yondashuv, kasbiy malaka, xalqaro hamkorlik, tibbiy ingliz tili, raqamlı texnologiyalar, lingvokulturologik kompetensiya.

**Annotation:** This thesis highlights the importance of foreign language proficiency, particularly English, in improving the professional competence of medical specialists. It analyzes effective methods of teaching a foreign language based on linguistic approaches, the role of international scientific cooperation and academic mobility, as well as the significance of linguocultural competence in professional activities. The opportunities of learning a foreign language through digital technologies are also discussed. The thesis explains the role of mastering foreign languages in shaping competitive medical professionals who meet global requirements.

**Keywords:** Foreign language, medicine, linguistic approach, professional competence, international cooperation, medical English, digital technologies, linguocultural competence.

XXI asrda tibbiyat sohasi global jarayonlardan chetda qolmagan holda jadal rivojlanmoqda. Tibbiy xodimlarning kasbiy malakasi nafaqat amaliy ko‘nikmalar, balki ilmiy ma’lumotlardan samarali foydalanish qobiliyati bilan belgilanadi. Bugungi kunda ilmiy tadqiqotlarning katta qismi ingliz tilida chop etilmoqda, xalqaro konferensiyalar, onlayn kurslar va treninglar asosan chet tillarida o‘tkazilmoqda. Shunday ekan, tibbiyatda chet tilini chuqr bilish kasbiy malakani oshirishda hal qiluvchi omil bo‘lib qolmoqda.

### **1. Kasbiy ingliz tili va tibbiy terminologiyaning o‘rni.**

Tibbiy atamalar asosan lotin va yunon ildizlariga ega bo‘lib, ular ilmiy tilning universalligini ta’minlaydi. Shifokorlar chet tilini, ayniqsa ingliz tilini puxta bilsa, xalqaro maqolalarni o‘qish, klinik tadqiqotlarda ishtirok etish va global ilmiy yangiliklardan tezda xabardor bo‘lish imkoniga ega bo‘ladi.

### **2. Lingvistik yondashuvlar asosida o‘qitish.**

So‘nggi yillarda tibbiy oliygohlarda chet tili ta’limi an’anaviy grammatikaga asoslangan yondashuvdan chiqib, amaliy, kommunikativ metodlarga asoslanmoqda. Masalan: - Kontekstual o‘qitish – talabalar tibbiy matnlar bilan ishlash, maqola va hisobotlarni tahlil qilish orqali tilni o‘zlashtiradilar. - Rol o‘ynash va simulyatsiya – shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqot ingliz tilida mashq qilinadi. - Integratsiyalashgan darslar – tibbiy fan va chet tili birgalikda o‘qilib, talaba tilni kasbiy faoliyatida qo‘llashni o‘rganadi.

**3. Xalqaro ilmiy hamkorlik va akademik mobil’lik.** Bugungi kunda tibbiyat oliygohlari xalqaro almashinuv dasturlarini yo‘lga qo‘ymoqda. Talabalar chet elda amaliyot o‘tab, global standartlarga mos tajribaga ega bo‘lishmoqda. Shuningdek, chet tilini bilgan mutaxassislar nufuzli журнallarda ilmiy maqolalar chop etish, xorijiy grant loyihibarida ishtirok etish imkoniyatiga ega.

### **4. Lingvokulturologik yondashuv.**

Tibbiyat nafaqat ilmiy bilim, balki insonparvarlik kasbi hamdir. Shifokor turli millat vakillari bilan ishslashda ularning madaniy qadriyatlarini, muloqot an'analari va etnopsixologik xususiyatlarini hisobga olishi lozim. Shu bois, chet tilini o'rganish jarayonida lingvokulturologik kompetensiyani shakllantirish kasbiy salohiyatni yanada boyitadi.

### **5. Raqamli texnologiyalar yordamida chet tilini o'rganish.**

Global integratsiya sharoitida masofaviy ta'lim platformalari keng qo'llanilmoqda. Onlayn kurslar, virtual laboratoriylar, telekonferensiylar va ilmiy vebinarlar tibbiyat xodimlariga istalgan joyda bilim olish imkonini bermoqda. Bunda chet tilini bilish masofaviy ta'limdan samarali foydalanish uchun kalit vazifasini bajaradi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, chet tili va tibbiyotning uzviy bog'liqligi kasbiy malakani oshirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Lingvistik yondashuvlar yordamida tibbiy oliygohlarda nafaqat nazariy bilim, balki amaliy muloqot ko'nikmalari shakllanmoqda. Chet tilini mukammal bilgan mutaxassis: ilmiy yangiliklarni tez o'zlashtiradi, - xalqaro hamkorlikda faol ishtirok etadi, - bemorlar bilan samarali muloqot qiladi. Demak, tibbiyotda lingvistik yondashuvlardan foydalanish, chet tilini o'rganish jarayonini kasbiy tayyorgarlik bilan uyg'unlashtirish bugungi kun shifokorlarini raqobatbardosh va malakali mutaxassis sifatida shakllantiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Crystal, D. English as a Global Language. Cambridge University Press, 2012.
2. Ferguson, G. English for Medical Purposes: A Case Study Approach. Multilingual Matters, 2013.
3. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. Cambridge University Press, 1998.
4. World Health Organization (WHO). Global Strategy on Human Resources for

## *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*

---

Health. Geneva: WHO Press, 2016.

5. Kachru, B. B., Kachru, Y., & Nelson, C. L. The Handbook of World Englishes. Wiley-Blackwell, 2006.

6. Скляревская, Г. Н. Язык медицины: Лингвистический анализ. Санкт-Петербург: Наука, 2014.

7. Chia, H. U., Johnson, R., Chia, H. L., & Olive, F. English for College Students in Taiwan: A Study of Perceptions of Needs and Effectiveness. English for Specific Purposes, 1999.

8. Seidlhofer, B. Understanding English as a Lingua Franca. Oxford University Press, 2011.